

ONA TILI DARSЛИKЛАRIDA PARONIMLARНИNG O'QITILISHI

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti

Diyorova Gulida Abdialim qizi

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi

gulidadiyorova000@gmail.com

Tel: 97-617-13-65

Kirish:

Til — xalqning milliy boyligi, uning tafakkurining ko'zgusidir. Ona tili ta'limi orqali o'quvchilar nafaqat savodxonlikka erishadi, balki ular tilning nozik jihatlari anglab, uni to'g'ri va samarali qo'llashga o'rganadilar. Bunda lug'aviy boylik, ayniqsa, leksik-semantik birliklar — sinonim, antonim, omonim, paronimlarning o'rganilishi muhim o'rin egallaydi. Paronimlar esa o'z o'rnida o'quvchilarda semantik farqlash, kontekstni anglash, uslubiy nozikliklarni sezish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tili darsliklarida paronimlarning o'qitilishi, ularning o'quvchilarning nutqiy savodxonligi va so'z boyligini oshirishdagi roli tahlil etilgan. Shuningdek, mavjud darsliklar misolida paronimlarga oid mashqlar tahlil qilinib, ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berilgan. Paronimlarni o'rgatish orqali o'quvchilarda til sezgirligi, nutq aniqligi va mantiqiy tafakkur rivojlanishi ta'kidlangan.*

Абстрактный: *В статье анализируется преподавание паронимов в учебниках узбекского языка и их роль в повышении устной грамотности и словарного запаса учащихся. Также на примере существующих учебников были проанализированы упражнения по паронимам и даны предложения по их совершенствованию. Обучение паронимам направлено на развитие языковой чувствительности, ясности речи и логического мышления у*

учащихся.

Kalit so'zlar: *paronim, o'zbek tili, darslik, til madaniyati, o'qitish metodikasi, so'z boyligi, nutqiy savodxonlik.*

Maqsad: Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — O'zbekiston umumta'lim maktablari uchun mo'ljallangan ona tili darsliklarida paronimlarning o'qitilishi holatini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilish, paronimlarning o'quvchilarning til madaniyatini shakllantirishdagi o'rnini aniqlash va ularni o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Vazifalar

1. Ona tili darsliklarida paronimlar mavzusining yoritilish holatini tahlil qilish hamda ularga oid mashq va topshiriqlarning o'quvchilarning til ko'nikmalarini shakllantirishdagi rolini aniqlash.
2. Paronimlarni o'rgatish orqali o'quvchilarda so'z boyligi, nutq aniqligi va til sezgirligini rivojlantirish imkoniyatlarini asoslash.
3. Darsliklardagi paronimlarga oid mashq va topshiriqlarni takomillashtirish yuzasidan metodik takliflar ishlab chiqish.

Paronim tushunchasi va ularning o'rne

Paronimlar — talaffuzi va tuzilishi jihatidan o'xshash, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: *efir – ifor, murakkab – mujmal, farqlash – ajratish* kabilar. Paronimlar noto'g'ri qo'llanilsa, fikr ifodasida noaniqlik yuzaga keladi.[2] Shuning uchun paronimlarni o'rgatish o'quvchilarda til sezgirligini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

Rus tilshunosligida ko'pincha paronimlar deganda bir so'z turkumiga mansub, bir xil o'zakli so'zlar tushuniladi [mas, adresat — adresant (oluvchi —

yuboruvchi), predstavitsya — prestavitsya (o'zini tanitmoq — o'lmoq)]. O'zbek tilshunosligida esa nafaqat bir xil o'zakli so'zlar, balki eshitilishi bir-biriga o'xshash har xil o'zakli so'zlar ham paronimlar deb tushuniladi (masalan, sharaf — sharob, afzal — abzal, tarif — ta'rif, enlik — ellik, sog'liq — sovliq).

Paronimlarni qo'llashda farqlamaslik, ularni adashtirish til hodisasi emas, balki muayyan til vakillarining shu til lug'aviy me'yorlarini yetarli darajada egallamaganligining natijasidir. Paronimlarni xato qo'llash, odatda, kam tanish bo'lgan so'zlarda uchraydi. Notanish so'zlarning katta qismini terminlar tashkil etadi.[1] Zero, fan va texnikaning tez sur'atlar bilan o'sishi natijasida muayyan tilga (mas, uzbek tiliga) kirgan yangi so'zlar shu tilda mavjud bo'lgan so'zlar bilan talaffuz jihatdan yaqin kelib qoladi, oqibatda yangiyangi paro-nimik qatorlar paydo bo'ladi. Masalan, tanbur — tambur, shitob — shtab, ta'rif — tarif, teri — tire va boshqa Nutkda noaniklikka yo'l qo'ymaslik uchun tildagi Paronimlarni farqlay bilish, ma'nolarini to'g'ri anglay olish zarur. Shunda "sharaf" o'rniga "sharob", "kompaniya" o'rniga "kampaniya", "tovlanmoq" o'rniga "toblanmoq", "enlik" o'rniga "ellik" tarzida qo'llashlarga o'rin qolmaydi.[4]

Badiiy adabiyotda, publitsistikada, ommaviy so'zlashuvda matnning, nutqning ifodaviyligi va ta'sirchanligini oshirish maqsadida Paronimlardan keng foydalaniladi. Paronimlarni ataylab adashtirib qo'llash kulgili holatni keltirib chiqaradi; bunday qo'llanishlar so'z o'yi-nida, askiyada, shuningdek, personajlarning nutqiy xususiyatlarini ochib berishda zarur bo'ladi.[5]

Maktab darsliklarida paronimlarning o'rganilishi

Hozirgi ona tili darsliklarida paronimlarga oid bilimlar odatda yuqori sinflarda, ya'ni 6–9-sinflarda beriladi. Darsliklarda paronimlarning ta'rifi, misollar orqali tushuntirilishi va ular bilan bog'liq mashqlar mavjud. Lekin ularni tizimli va kontekst asosida o'rgatish yetarli darajada emas.

Ba'zi darsliklarda paronimlar sinonim yoki antonimlar bilan aralashtirib tushuntiriladi. Bu esa o'quvchilarda chalkashlikka sabab bo'lishi mumkin.[3] Shu bois paronimlar alohida mavzu sifatida yoritilishi, har bir paronim jufti konkret misollar bilan izohlanishi zarur.

O'qitish usullari va tavsiyalar

1. **Kontekstda o'rgatish:** Paronimlarning ma'nodagi farqlari matn asosida tushuntirilsa, o'quvchilar ularni yanada aniqroq anglaydi. Masalan: "Murakkab masala" va "Mujmal fikr" jummalari orqali so'zlarning farqi ko'rsatiladi.
2. **Taqqoslash mashqlari:** O'quvchilarga ikki paronim so'z berilib, ularni alohida-alohida jumlada ishlatish topshiriladi.
3. **Qarama-qarshi juftliklar bilan farqlash:** Sinonim, antonim va omonimlar bilan farqlanishi bo'yicha jadval tuzish samarali usullardan biridir.
4. **So'z boyligini oshirish:** Paronimlar o'rgatilayotganda ularning uslubiy xususiyatlariga (adabiy, rasmiy, so'zlashuv uslubi) ham e'tibor berilishi kerak.
5. **Interfaol metodlar:** Rolli o'yinlar, testlar, "to'g'ri yoki noto'g'ri" mashqlari orqali darslarni jonlantirish mumkin.

Xulosa:

Ona tili darsliklarida paronimlarning mavzusi alohida tahlilni talab qiladi. Ularga oid mashq va topshiriqlar mavjud bo'lsa-da, ularning ta'siri ko'pincha yuzaki bo'lib, til ko'nikmalarini chuqur shakllantirishga yetarli emas.

Paronimlarni o'rgatish orqali o'quvchilarda lug'aviy boylik, ifoda aniqligi va uslubiy sezgirlikni shakllantirish mumkin. Bu esa til madaniyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir.

Darsliklar va metodik materiallarda paronimlarga oid topshiriqlarni kontekst

asosida boyitish, interfaol va tahliliy mashqlar sonini ko'paytirish zarur. Bu takliflar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va to'g'ri nutq tuzish malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Jo'rayev, A. (2019). *O'zbek tilshunosligiga kirish*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Karimov, N., & Tursunova, G. (2021). *Ona tili metodikasi asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.
3. Mahmudov, N., & Rasulov, S. (2018). *Zamonaviy o'zbek adabiy tili*. Toshkent: Fan.
4. Qodirova, Z. (2022). Paronimlar va ularning semantik tahlili. *Filologiya masalalari*, 1(2), 57–63.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2021). *Ona tili 8-sinf darsligi*. Toshkent: Yangi avlod nashriyoti.